

XALQ DOSTONLARI LESKSIKASINING O'RGANILINISHI

Noryigitova Moxinur Nodirjon qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15518821>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq dostonlari leksikasi qiyosiy tarixiy tahlil qilinadi va ularning o'zaro munosabati, shakllanish va manbalari, shuningdek, xalq dostonlari tilidagi qadimgi turkiy so'zlar tahlil ostiga olinadi.

Kalit so'zlar: Xalq dostonlari, qiyosiy tarixiy tahlil, doston leksikasi, dostonlar leksikasida qadimgi turkiy so'zlar, folklor asalar, xalq og'zaki ijodi.

Milliy tilning vujudga kelishi millatning shakllanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Uning tarkib topishi va taraqqiy etishida millat tarkibiga kirgan har bir etnik guruhning jonli tili hamda ular tomonidan yaratilgan turli manbalar muhim ahamiyatga egadir. Til manbalari o'rtasida, ayniqsa xalqning madaniy turmushida juda katta o'rin egallagan badiiy ijodning xilma-xil janrlari alohida qimmat kasb etadi. Zero, aynan badiiy ijod manbalari asrlar mobaynida qabila va urug'lar tilining elat tiliga, elat tilining umumxalq tiliga hamda adabiy tilining vujudga kelishi bilan bog'liq murakkab jarayonning yangi-yangi bosqichlariga o'tishida asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bu ijodiy jarayonning xalqimiz o'tmishida ko'p asrlik tarixga egaligi, avvalo bizgacha kelgan qadimgi turkiy yozma obidalar, qolaversa, xilma-xil janrlarda yaratilgan mumtoz adabiyot namunalari misolida ko'zga tashlanadi. Badiiy ijod bilan bog'liq tarixga nazar tashlar ekanmiz milliy tilning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan boy ma'naviy xazinalar birgina yozma manbalar bilan chegaralanib qolmaganligiga amin bo'lamiz. Zotan, tilning ibtidoiy shaklida (ya'ni og'zaki shaklida) yaratilib, avloddan avlodga o'tib turli ta'sir va o'zgarishlarga uchragan holda bizgacha yetib kelgan xalq og'zaki ijodi namunalari buning yaqqol dalilidir. Ayni paytda, mazkur manbalar og'zaki poetik nutqdan bahri olib, ezgu niyatlar sari intilib yashagan ajdodlarimiz tilning beqiyos boyliklarini keyingi avlodga meros qilib qoldirish maqsadida xotira qudartiga asoslangan xilma-xil janrlarni kashf etganligini tasdiqlovchi dalil sifatida ham qimmatlidir. Shunday ekan o'zbek tilining uzoq asrlik taraqqiyot izchilligini taminlovchi eng muhim vositalardan bo'lgan so'z san'ati haqida gap borganda, badiiy ijodning yozma shakli bilan bir qatorda, og'zaki ijod janrlarining ham tilimiz taraqqiyotida o'ziga xos o'rin bo'lganligi qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar asosida atroflicha yoritilmog'i lozim.

Zero "faqat qiyosiy-tarixiy tahlilgina tilning eng qadimgi taraqqiyoti va holatini tasavvur qilish imkonini bera oladi"¹.

Hozirga qadar o'zbek xalqining bu boy xazinalari tilshunoslikning turli sahnalarini ilmiy o'rganishda monografik tadqiqotlarga keng miqyosda jalb etilmoqda. Xususan, bu taqqiqotlarda folklor asarlarining ijodiy shakllanish tarixi, o'ziga xos taraqqiyot qonunlariga, shuningdek, tilning leksik, grammatik, fonetik va uslubiy imkoniyatlarining og'zaki ijod manbalarida joriylanishi bilan bog'liq, ko'pgina masalalarni ham qamarab olgan bu tadqiqotlar, mazkur

¹ Serebrennikov B., Gadjiyeva N. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyuriskix yazikov. - Baku, 1979 -S-5.

manbalar tilning diaxron va sinxron nuqtai nazaridan ilmiy izlanishlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq so'z san'atining ibtidosi bilan bevosita aloqador bo'lgan folklor manbalari hozirgacha tilshunoslar oldida o'zining barcha lingvistik imkoniyatlarini oshkor etgan deb o'ylayman. Xususan, milliy tilning shakllanishida o'g'zaki ijod manbalarining roli, ularning til tarixiga munosabati, til manbalari o'rtasida tutgan o'rni, til tizimining yuqori va quyi sathlari bo'lgan adabiy til va dialektlarga munosabati, o'ziga xos taraqqiyot qonuniyatlari bilan bog'liq, ko'pgina masalar hali to'raligicha o'z yechimini topmagan. Holbuki, folklor asarlarini uzoq o'tmishga daxldorligini alohida e'tirof etilishi, bu manbalar tilini tarixiy izchillik asosida tanqid etish lozimligini ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur manbalarda turli tarixiy davrlarga doir juda ko'p lingvistik unsurlarni ham uchratish mumkinki, ular yuqorida sanab o'tilgan masalaraga yana ham chuqurroq yondashishda muhim qiyosiy dalil vazifasini o'taydi.

Folklor manbalarida o'z aksini topgan tarixiy ma'lumotlardan tadqiqotlarda tayanch dalil sifatida foydalanish tajribasi uzoq o'tmishga tegishli bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati urf-odatlarini, diniy e'tiqodi tili xususidagi qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan antik davr tarixchilari Geradot, Kteziy, Polien singari olimlarning asarlarida, shuningdek, Sharqning Xamza Isfaxoniy, Tabariy, Ma'sudiy, Zero' faqat qiyosiy-tarixiy tahliliga tilning eng qadimgi taraqqiyoti va holatini tasavvur qilish imkonini bera oladi"².

Hozirga qadar o'zbek xalqining bu boy xazinalari tilshunoslikning turli sahnalarini ilmiy o'rganishda monografik tadqiqotlarga keng miqyosda jalb etilmoqda. Xususan, bu tadqiqotlarda folklor asarlarining ijodiy shakllanish tarixi, o'ziga xos taraqqiyot qonunlariga, shuningdek, tilning leksik, grammatik, fonetik va uslubiy imkoniyatlarining og'zaki ijod manbalarida joriylanishi bilan bog'liq, ko'pgina masalalarni ham qamarab olgan bu tadqiqotlar, mazkur manbalar tilning diaxron va sinxron nuqtai nazaridan ilmiy izlanishlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq so'z san'atining ibtidosi bilan bevosita aloqador bo'lgan folklor manbalari hozirgacha tilshunoslar oldida o'zining barcha lingvistik imkoniyatlarini oshkor etgan deb o'ylayman. Xususan, milliy tilning shakllanishida o'g'zaki ijod manbalarining roli, ularning til tarixiga munosabati, til manbalari o'rtasida tutgan o'rni, til tizimining yuqori va quyi sathlari bo'lgan adabiy til va dialektlarga munosabati, o'ziga xos taraqqiyot qonuniyatlari bilan bog'liq, ko'pgina masalar hali to'raligicha o'z yechimini topmagan. Holbuki, folklor asarlarini uzoq o'tmishga daxldorligini alohida e'tirof etilishi, bu manbalar tilini tarixiy izchillik asosida tanqid etish lozimligini ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur manbalarda turli tarixiy davrlarga doir juda ko'p lingvistik unsurlarni ham uchratish mumkinki, ular yuqorida sanab o'tilgan masalaraga yana ham chuqurroq yondashishda muhim qiyosiy dalil vazifasini o'taydi.

Folklor manbalarida o'z aksini topgan tarixiy ma'lumotlardan tadqiqotlarda tayanch dalil sifatida foydalanish tajribasi uzoq o'tmishga tegishli bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati urf-odatlarini, diniy e'tiqodi tili xususidagi qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan antik davr tarixchilari Geradot, Kteziy, Polien singari olimlarning asarlarida, shuningdek, Sharqning Xamza Isfaxoniy, Tabariy, Ma'sudiy, Beruniy, Saolibiy,

² Serebrennikov B., Gadjiyeva N. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyuriskix yazikov. - Baku, 1979 -S-5.

Balamiy, hamda Abulg'oz Bahodirxon singari yetuk mutafakkirlari tomonidan yaratilgan asarlarda tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatorda xalq og'zaki ijodi namunalari tahliliga ham keng o'rin berilishi buning yaqqol misolidir³.

Qolaversa, turkiy xalqlar uchun umumiy bo'lgan "O'rxun-Enasoy" va Uyg'ur bitiklarida, Yusuf Xos Xojib "Qutag'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Xibat ul-xaqoyiq" singari yozma manbalarda "tarixiy qo'shiq, hikmatli so'zlar, hatto qadimiy dostonlarning xarakterini aks ettiruvchi parchalarni uchratish mumkinligi", og'zaki ijod manbalarining qadimda badiiy ijod jarayonining ham kuchli ta'sir o'tkazish qudartiga ega bo'lganligidan dalolat beradi⁴.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak folklor namunalaridan o'rin olgan xalq tiliga doir boy lingvistik dalillardan qiyosiy manbaa sifatida foydalanish tajribasi XI asrning yirik tilshunosi Mahmud Qoshg'ariy nomi bilan bog'lanadi. Jumladan, olim turkiy tillarni qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlagan "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy etnik guruhlar (qipchoq, o'g'uz, qarluq) tilida mavjud bo'lgan lug'aviy birliklarni to'plash va ularning ma'nolarini izohlash orqali semantik qirralarini ochib berish, shuningdek, dialektal tafovutlarni ko'rsatishda xalq poetik ijodi namunalaridan unumli foydalaniladi. Bu asarda muallif o'zi yashagan davr va hududda mavjud bo'lgan og'zaki ijod namunalari bilan bir qatorda, u asar uchun ma'lumotlar to'plash maqsadida kezib chiqqan barcha joylarda qadimdan aytib kelingan og'zaki janrlardan ham ko'plab parchalar keltirib o'tadi⁵. Bu xususida Maxmud Qashg'ariyning o'zi ham guvohlik bergan holda "Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, sajarlar maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim", -deb yozgan edi⁶.

Xalq og'zaki ijodining namunalarining muhim amaliy ahamiyati shundaki bu manbalar adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari o'rtasida tarixan mavjud bo'lgan tafovutlarning kamayishida muhim ro'l o'ynaydi. Chunki og'zaki ijod o'zining kuchli ta'sirini sintezlanish yo'li bilan ham o'tkazib boradi. Folklor asarlarning sintezlanishi esa badiiy ijoddagi eng qadimiy usullardan bo'lib, "Ijodkorlar o'z davrining aktual muammolarini tasvirlashda ko'p hollarda ana shu an'anaviy usulga murojaat etganlar". Jumladan, Alisher Navoiyning eski o'zbek tilining ahamiyatini ko'rsatish maqsadida yaratgan "Xamsa"sida xalq afsona va rivoyatlardan "Maxbub ul-qulub" asarida esa xalq maqollaridan unumli foydalanishi buning yaqqol dalilidir. Qadimdan mavjud bo'lgan bu tajribaning Navoiy izdoshlari tomonidan izchil davom ettirilishi yozma tilga jonli so'zlashuv va folklor tiliga xos ko'pgina unsurlarning kirib borishi uchun qulay imkoniyatlar vujudga keltirdi. Natijada, og'zaki va yozma til shakllari o'rtasidagi tafovut XVII-XIX asrlarga kelib ancha kamaydi.

Qayd etilgan qisqacha dalillarning o'ziyoq, folklor manbalarining qadimdan oq ijtimoiy yo'nalishdagi fan sohalarida va badiiy ijod jarayonida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lganidan dalolat beradi. Shuning uchun ham tadqiqotlarda "Xalqning qadimiy madaniy va maishiy turmushini aks ettiruvchi og'zaki manbalarni to'plash va tadqiq etish muammo bo'lib

³ Mallayev N.M. Ozbek adabiyoti tarixi, -Toshkent, 1976, 41-bet

⁴ Jimunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. -M., 1976. -C.9-10; Qarang: Sarimsoqov B. Qadimgi davr folklori. -Toshkent, 1988, 25-35 betlar.

⁵ Qarang: Devonu lug'otit turk, indeks-lug'at, -Toshkent, 1967, 529-540 betlar.

⁶ Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 1 tom. - Tashkent. 270-bet.

turar ekan, bizning bu sustkashligimizni kelajak avlod olimlari aslo kechirmaydi. Fan uchun esa bu tiklab bo'lmaz yo'qotishdir",-deb ta'kidlanadi.

Folklor asarlarini to'plash va ilmiy o'rganishning o'ziga xos yangi bosqichi XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning boshida Markaziy Osiyoda yashagan rus orientalistlari, sayyohlari va chor ma'muriyatning ayrim rasmiy vakillari faoliyati bilan bog'lanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodining, xususan, xalq dostonlarining keng miqyosda yozib olinishi va tadqiq etila boshlanishi esa, XXasrning 20-yillariga to'g'ri keldi. Jumladan, 20-yillarga kelib G'ozi Olim Yunusov, G'ulom Zafariy, Elbek, Bekijon Rahmonov, Xodi Zaripovlarning rahbarligi va bevosita ishtirokida uyushtirilgan folklor ekspeditsiyalarida o'zbek xalq og'zaki ijodining nihoyatda katta hajmdagi namunalari to'plandi. Aynan ana shu ekspeditsiyalarda Ergash shoir, Fozil Yo'ldosh va Po'ltan shoir singari talantli xalq san'atkorlarining nomlari ham keng jamoatchilik o'rtasida ma'lum va mashhur bo'ldi. Keyingi yillar davomida esa bunday ekspeditsiyalar F.M.Karomatov, M.K.Qodirov, M.S.Saidov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov singari olimlar rahbarligida uyushtirilib kelinmoqda⁷.

REFERENCES

1. Abdullayev G'. **O'zbek xalq dostonlari**. – Toshkent: Fan, 1984.
2. Abdullayev G'. **O'zbek xalq og'zaki ijodi**. – Toshkent: O'zbekiston, 1993.
3. Abdurahmonov G'. **O'zbek xalq og'zaki ijodining asosiy masalalari**. – Toshkent: Fan, 1978.
4. Aliev B. **O'zbek xalq dostonlari poetikasi**. – Toshkent: Fan, 1988.
5. Asqarov A. **O'zbekiston tarixi manbalari**. – Toshkent: Universitet, 2001.
6. Boboev H. **O'zbek xalq ijodiyoti**. – Toshkent: O'qituvchi, 1972.
7. Bo'ronov M. **Turkiy tillarda so'z yasalihi**. – Toshkent: Fan, 1990.
8. Bo'ronov M. **O'zbek xalq dostonlarining tili va uslubi**. – Toshkent: Fan, 1981.

⁷ O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.-Toshkent,1980. 20-28betlar.